

## 129. To'plamlar va ularning qismto'plamlari

Yondosh mavzu:  
sport.

To'plam, to'plamlar elementlari,  
elementlar miqdori.



1. Ushbu ikki to'plamni taqqoslang. Ulardagi elementlar bir xilmi?



Agar ikki to'plam butunlay bir xil elementlardan iborat bo'lsa, bunday to'plamlar teng deb hisoblanadi. Ushbu elementlarning to'plamda yozilish tartibi muhim emas.

Yozilishi:

$A = B$  –  $A$  va  $B$  to'plamlar teng;

$A \neq B$  –  $A$  va  $B$  to'plamlar teng emas.



2. Ushbu to'plamlar juftligidan qaysi biri teng?

a)  $A = \{3, 6, 9, 12, 15\}$ ,  $B = \{3, 6, 9, 1, 2, 5\}$ .

b)  $A$  – sonlar to'plami,  $B$  – bir xonali sonlar to'plami.

d)  $A = \{b, a, d, f, e\}$ ,  $B = \{a, b, d, e, f\}$ .

e)  $A$  – to'g'ri to'rtburchaklar to'plami,  $B$  – to'rtburchaklar to'plami.



3. Quyidagi to'plamlar nechta elementni o'z ichiga oladi:


a) ikki xonali sonlar to'plami;

b) "sportchi" so'zidagi harflar to'plami;

d) barcha raqamlar to'plami?



4. Ushbu maydonlarda qanday sport turlari o'tkazilishini eslay olasizmi? Har bir jamoada nechta odam o'ynashi kerak?



5. Namuna bo'yicha yozing.

*Namuna:*

Ikki xonali yaxlit sonlar to'plamida nechta element bor?

$A = \{10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90\}$  – 9ta element.

- a) "Ona" so'zining harflar to'plamida nechta element bor?
- b) Hafta kunlari to'plamida nechta element bor?
- d) Bir xonali juft sonlar to'plamida nechta element bor?

Agar to'plamda hech qanday element bo'lmasa, u **bo'sh to'plam** deb ataladi va  $\emptyset$  belgisi bilan belgilanadi.



$\emptyset$  – 0 ga bo'linadigan sonlar to'plami.

$\emptyset$  – 10ta qo'li bo'lgan odamlar to'plami.



6. To'plamlarni yozing. Ularning har birida nechta element bor?

- a)  $A$  –  $a$  ning  $a < 7$  bo'lgandagi qiymatlari to'plami.
- b)  $B$  –  $b$  ning  $5 < b < 10$  shart bajarilgandagi qiymatlari to'plami.
- d)  $C$  –  $c$  ning  $c < 0$  bo'lgandagi qiymatlari to'plami.



7. Tenglamalarni og'zaki yeching. Ushbu tenglamalarning barcha ildizlari to'plamini yozing. Bu to'plamlar elementlari orasida qanday umumiy alomatni ko'rish mumkin?

$$45 + x = 89$$

$$2 \cdot t = 94$$

$$y - 68 = 113$$

$$96 : m = 2$$

$$700 - z = 654$$

$$n : 7 = 7$$

## 129. To'plamlar va ularning qismto'plamlari



8. Masalani berilgan shartlar bo'yicha yeching.

Maktabga sport anjomlari olib kelindi. Jami nechta anjom olib kelingan?



14 ta anjom



2 marta ko'p



5 ta kam



9. Ifodalar tuzing va ularni hisoblang.

- 845 sonining ikkiga ko'paytirilgani bilan 1789 soni yig'indisi.
- 809 sonining uchga ko'paytirilgani bilan 187 soni ayirmasi.
- 82 soni bilan eng kichik ikki xonali sonning ko'paytmasi.
- Eng katta uch xonali sonning 3 ga bo'linmasi.



10. Shashka musobaqasiga 7 nafar ishtirokchi keldi. Ularning har biri boshqalar bilan bittadan o'yin o'ynadi. Hammasi bo'lib nechta o'yin o'ynalgan?



11. Hisoblang. Berilgan ifodalarning qiymatlari to'plamini tuzing.

$$630 \cdot 5 + 160 : 2$$

$$338 + 46 \cdot 2$$

$$919 - 50 \cdot 4$$

$$(520 + 180) : 7$$

$$822 - 311 \cdot 2$$

$$(1000 - 436) : 4$$



12.  $A = \{5, 6, 8, 10, 13, 15, 20, 24, 33, 36, 40, 50, 55, 60\}$

to'plamdan quyidagilarni ko'chirib yozing:

- $B$  – juft sonlardan iborat qismto'plam;
- $C$  – yaxlit sonlardan iborat qismto'plam;
- $D$  – bir xonali sonlardan iborat qismto'plam.